



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

339-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshida Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyundagi PQ–204-son qarori ijrosi haqida”gi 299-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshida Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyundagi PQ–204-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 299-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 299-6-0-Q/24-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PQ–204-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda — Inspeksiya) tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Bosh prokurorga, zarur hollarda, Inspeksiyaning tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

Inspeksiya faoliyati respublika budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi;

Inspeksiya boshlig‘i maqomi, mehnatga haq to‘lash shartlari, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (keyingi o‘rinlarda — Departament) boshlig‘i o‘rinbosariga tenglashtirilishi;

Inspeksiyaga Bosh prokuror o‘rinbosari — Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga asosan Bosh prokuror tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qilishi;

Inspeksiya Bosh prokurorga hamda Bosh prokuror o‘rinbosari — Departament boshlig‘iga bo‘ysunuv va hisobdorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi;

Inspeksiya yuridik shaxs hisoblanishi, mustaqil balansga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachilik xizmati qo‘mtasida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga ega bo‘lishi;

Inspeksiya xodimlari Inspeksiya boshlig‘ining taqdimnomasiga asosan Bosh prokuror o‘rinbosari — Departament boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi;

Inspeksiyada xizmatni o‘tash tartibi Bosh prokuror tomonidan belgilanishi, bunda xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etishda Departament organlariga xizmatga qabul qilish va xizmatdan bo‘shatish talablari va shartlari tatbiq etilishi belgilanganligi;

Inspeksiyaning yuridik shaxs tashkil etmagan holda budjetdan tashqari jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi xodimlarini moddiy qo‘llab- quvvatlash choralari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Inspeksiyani saqlash va axborot tizimini yaratish bilan bog‘liq xarajatlar joriy yilda Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘larining 25 milliard so‘m miqdoridagi qismi hisobidan moliyalashtirilishi, 2025-yildan boshlab esa tegishli yil uchun Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda nazarda tutilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev